

## ESHITISHDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOALALAR

*Andijon davlat pedagogoika institute Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi 1-kurs talabasi Yakubova Umida*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada eshitish nuqsonlarining kelib chiqishi sababalari ularning turlari va tasnifi, u turdag'i bolalarga qanday ta'l'm tarbiya berish, shu bilan birga logopedic ishlar olib borish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Eshitish analizatorlari, eshitish darajalari, eshitish patalogiyasi, surdopedagogika, logopedic ishlar, eshitish suyakchalar.

2020-yil 13- oktyabrdagi PQ-4860 sonli ‘Alovida ta'l'm ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'l'm – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida chora tadbirlar” qarori qabul qilindi.

*Sh.M.Mirziyoyev*

Haqiqatdan ham hozirgi kunda alovida ta'l'm ehtiyojlari bo'lgan bolalalar soni ortib bormoqda, shu bilan birglikda ularga ta'l'm-tarbiya berish uchun ham maxsus ta'l'm muassasalari ko'paymoqda. Shujumladan alovida yordamga muxtoj bo'lgan bolalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar
2. K'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar
3. Nutqida nuqsoni bo'logan boalalr
4. Tayamch -harakat sistemasida kamchiligi bo'lgan bolalar
5. Aqliy rivojlanishi sustlashgan bolalar
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar
7. Autizm sindromli bolalar

Sanab o'tganlarimiz orasida so'z yuritadigonimiz eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalardir.

Birinchi navbatda eshitish o'zi nima?

Surdopedagogika (lotincha- “surdo” so’zidan olingan bo’lib, karlik degan manoni bildiradi.[3.15-b].

Surdopedagogika eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan shug’ullanuvchi fan tarmog’i.

Surdopedagogika fan sifatida eshitishida muammosi bo’lgan shaxslar ta’lim tarbiyasi amaliyoti bilan chambarchas holda, shuningdek, ushbu amaliyotni har tomonlamao’rganish hamda umumlashtirish asosida rivojlanadi.[2.6-b]

Eshitish bu bilish faoliyatlarining muhim turi ya’ni sezgi a’zolaridan biri hisoblanadi. Eshitish orqali biz atrof muhitdagi informatsiyalarni qabul qilamiz va oliv nerv faoliyatları orqali ularga javob reaksiyasini qaytaramiz. Hammaiz bilamizki eshitish a’zosi bu – quloq .

Quloq odamning eshitish va muvozanat a’zosi, uning anatomic tuzilishi va bajaradigon vazifalari juda murakkab.[2.114-b.] Quloq asosan uch qismdan iborat :

- 1.Tashqi quloq
- 2.O’rta quloq
3. Ichki quloq

Tashqi quloq – quloq suprasi va tashqi eshituv yo’lidan iborat. Quloq suprasining vazifasi tashqaridagi informatsiyalarni jamlash. Nog’ora pardoning vazifasi esa o’rta quloqqa yetkazib berish.

O’rta quloq – bir biri bilan o’zaro tutashgan nog’ora bo’shligi va so’rg’ichsimon o’siq va halqum bilan nog’ora bo’shlig’ini qo’shib turuvchi eshituv nayidan tashkil topgan.

Ichki quloq – yoki labirint , chakka suyagining toshsimon qismi ichida joylashgan bo’lib , tashqi tomondan suyakdan , ichki tomondan esa takrorlovchi parda labirintidan iborat.[2.119-b.]

Inson qulog’I orqali eshitgan narsalariga nutqi orqali reaksiya bildiradi ya’ni og’zaki nutqining shakllanishida eshitish analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator bilan mustahkam bog’langan holda ishlaydi. Mana shu analizatorlarning buziloshi oqibatida zaif eshituvchi va karlik holati kelib chiqadi.

Karlik- eshitishning mutlaqo yo'qligin yoki pasayishining shunday shakliki unda og'zaki nutq faqat qisman, eshitish aparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi.

Zaif eshitish – har ikkala qulq bilan eshitishning pasayishi, unda nutqni idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keadi, biroq ovoz kuchaytirilganda uni idrok etish mumkin bo'ladi.[4.77-b].

Zaif eshituvchanlik natijasida nutq ham shakllanmay qolishi mumkin . Bunda bola bilan logopedic mashg'ulotlar amalga oshiriladi.

Shu jumladan shuni takidlash joizki eshitishning yaqqol va turg'un pasayishi nafaqat nutqni idrok qilish, balki ekspressiv nutqning buzilishiga (yoki rivojlanmasligiga ) ham olib keladi [1.418-b].

Shundan ko'rrib turibdiki , eshitishning pasayishi nutq idrokiga ta'sir etibgina qolmay , balki ekspressiv nutqni ya'ni tashqi nutqni shakllanmasligiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan eshitish holati pasaygan bolalar bilan logoped doimiy ish faoliyatini olib borishi kerak.

Logopedlar ish faoliyatida bola bilan ishslash paytida artikulatsion a'zoni ko'rsatmagan holda ishlashi kerak . Chunki zaif eshituvchi bola eshitishi qiyinlashgani sari , so'z va gaplarni inson artikulatsiyasidan o'qishni odat tusiga aylantirib oladi. Shuning uchun logoped bu holatni cheklashi lozim.

Zaif eshituvchanlik bolaning nafaqat nutqiga, balki psixikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, ushbu ta'sir darajasi individual bo'lib, bola nerv sistemasiga bog'liq. Shu bilan birga intellectual ongning yuqoriligi va albatta tashqi dunyo sharoitiga bog'liq.[2.135-b]

L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapozoniga asoslanib karlarni 4 ta guruhga ajratdi:

- 1) Eng past chastotalarni qabul qilish (125-250 Gs);
- 2) 500 Gs gacha chastotalarni qabul qilish;
- 3) Past va o'rta chastotalarni qabul qilishn (1000 Gs gacha );
- 4) 2000 Gs gacha chastotalarni qabul qilish.[3.64-65-b].

Zaif eshituvchanlik va karlik chegarasi 85dB ni tashkil etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar eshitishning darajalari edi ya'ni bolaning eshitish chastotasini belgilaydigan terminlar.

Demak eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish , ularni logopedic shihatdan shaklantirish va en muhimi eshitish qobilyyatini yanada oshirish uchun korreksiya (tuzatish), kompensatsiya (o'rnini qoplash) ishlarini olib borish zarur hisoblanadi. Shundagina bolada ijobiyl o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.Y.Ayupova, "Logopediya" darslik, O'zb. Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent 2007.
2. M.R.Po'latxo'jaeva, 'Defektologikaning klinik asoslari' o'quv qo'llanma. Toshkent 2013.
3. M.Z.Narbaevna, "Maxsus pedagogika" (Surdopedagogika) o'quv qo'llanma. Toshkent 2017.
4. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjonova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova , "Maxsus psixologiya". O'zb. Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2013.